

BOSHLANG‘ICH MAKTABNI INTEGRATSIYA QILISH

Toshmamatova Shoxsanam

JDPU magistranti

ANNOTATSIYA

Boshlang‘ich ta‘limni integratsiya qilishning talablari hamda bunga zamonaviy yondashuvning zarurati haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta‘lim integratsiya, integratsiya, fanlararo integratsiya, ta‘lim samaradorligi.

Boshlang‘ich ta‘lim, integratsion darslar. Prezidentimiz alohida ta‘kidlaganlaridek, «Agar bolalar erkin fikrlashga o‘rganmasa, berilgan ta‘lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatda bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘lida. Mustaqil fikrlash esa kata boylikdir. O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish uchun zamon talablariga javob bera oladigan oliy ma‘lumotli o‘qituvchilarini malakasini oshirish uzluksiz ta‘limning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kun zamon talabidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak Hozirgi kunda boshlang‘ich maktab ta‘limini integratsiya qilish haqida ko‘p gapirilayapti. Du tushunarli - kichik maktab o‘quvchisi atrofidagi olamni bir butunligicha qabul qiladi. Uning uchun tabiatshunoslik, rus tili, musiqa va boshqa o‘quv fanlari nomi emas, balki atrofidagi olam obyektlarining tovushlar, ranglar, hajmlarning turli-tumanligi qiziqarlidir. Dolalarning tabiat va kundalik hayotdagi barcha narsalarning bog‘liqligini ko‘rishga o‘rgatish kerakligini o‘qituvchi sezadi, biladi. Shunday ekan ta‘lim integratsiyasi

hozirgi zamon talabiga javob beradimi? Du masala qanday yechilishi kerak, uning mohiyati nimada'?

Ta'limni integratsiyalash fikri xalq ta'limida tabaqalashti-rish va individuallashtirish bilan birga muhokama qilina boshlandi.

Agar kichik maktab ta'limini tabaqalashtirish asosida kitob, darslik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga tayyorgarlik darajasi hamda kichik maktab yoshida qiziqishlami faol shakllanti-rishni taqozo etsa, integratsiyaning asosi qilib, turli ranlami o'rganish obyektlari bo'lgan ba'zi umumiy tushunchalarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va kengaytirish mumkin.

Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi - boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yishi va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o'quvchisi predmet yoki voqealik hodisalarning bir necha tomondan ko'rish muhimdir: mantiqiy va emotsional tomondan, badiiy asarda va ilmiy ommabop maqolada, biolog, so'z ustasi, rassom, musiqachi nuqtayi nazardan va boshqalar.

Asosiy fanlarni o'zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushinishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rnatish ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Dunga turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, yaxshi shakllangan tuzilish va o'tkazish tartibiga ega bo'lgan, tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin. Lekin integratsiyalangan darsga boshqa fanlar, boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liq tushunchalar tahlil qilinishining natijalari kiritiladi. Masalan, «qish», «sovuq..», «bo'ron», kabi tushunchalar o'qish, rus lili, labialshunoslik musiqa, lasviriy san'al darslarid.. ko'rib chiqiladi.

REFERENCES

1. Mavlonova R., Rahmonqulova R. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.
2. Asauliyuk E.P. Integrirovanny podxod v obuchenii mladshix shkolnikov // Perspektivy nauki. 2011. №10 str.222-226
3. Jurayev, J. S. O. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 11-14.
4. Sulaymonov, J. (2021) ABDURAHMON IBN XALDUNNING TAMADDUN TARAQQIYOTI HAQIDAGI QARASHLARIDA JAMIYAT TAHLILI//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.
5. Sulaymonov, J. B. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA “ASARIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 732-737.